



**Boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'limning hozirgi kundagi  
ahamiyati va uni tashkil qilish yo'llari**

**Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi**

Qarshu Xalqaro universiteti Muhandislik va  
pedagogika fakulteti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** maqolada boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'limning ahamiyati, qamrab olinganlik darajasi, ushbu ta'lim shaklini joriy etishda mavjud muammo va to'siqlar, hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tafsiyalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, integratsiya, konvensiya, imkoniyati cheklangan bolalar, huquq va erkinliklar, maxsus umumta'lim muassasalari.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida maxsus ehtiyojli bolalarga bo'lgan munosabat turli davrlarda turlicha bo'lib kelgan. Qadimgi zamonlarda fan va ta'lim taraqqiy etmagan jarayonda nogironligi bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga munosabat anchayin salbiy edi va e'tibordan chetda qolib ketardi. O'rta asr Yevropasida esa feodalizm inqirozga uchragan, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari endigina shakillanib kelayotgan bir davrda jismoniy yoki ruhiy kamchiligi bor shaxslar ijtimoiy hayotdan butunlay ajratib qo'yilgan, ularga bir buyum sifatida munosabatda bo'lish hollari tez-tez uchrab turgan. Hattoki, Qadimgi Rimda nuqsonli va zaif go'daklarni tug'ilgandanoq o'ldirishgan.

Tabiat bilan birgalikda insonlar ham rivojlanib bordi. Turli xil aqidalar, diniy qarashlar anchayin o'zgardi. Insonlar tafakkurida sog'ligiga e'tibor qaratish, yordam, ko'mak



tushinchalari o'sib bordi. Masalan, 19-asrning o'rtalariga qadar G'arbda psixolog, pedagog va amalyotchilar hayotida bola rivojidagi kamchiliklarni aniqlash, kamchiliklarning sabablarini topish, ularga amaliy ko'mak berish choralari ham ko'rib chiqildi. Insonlar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash maqsadida qonuniy choralar ham ishlab chiqildi.

BMT tomonidan 1948-yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" qabul qilindi. Mazkur deklaratsiya barcha insonlarning huquq va erkinliklarini kafolatlar ekan, uning barcha bandlari maxsus ehtiyojli insonlarga ham birdek xizmat qiladi. Nogiron shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kafolatlash maqsadida BMT 1975-yilda "Nogiron shaxslar huquqlari" to'g'risidagi deklaratsiyani qabul qildi. Ushbu deklaratsiyada nogiron shaxslarni hurmat qilish, ularning ehtiyojlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish, ijtimoiy muomilaga kirishishda ular tomon birinchi qadamni biz tashlashimiz kerakligi ham ta'kidlab o'tilgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning huquqlari ham boshqa barcha sog'lom tengdoshlari qatori tug'ilganidanoq mavjud bo'ladi. Nogironlikning kelib chiqish sabablari, darajasidan, fuqaroning millati, dini, irqidan qattiq nazar barcha huquq va erkinliklarga to'laonli haqlidirlar deya belgilangan.

"Nogiron shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi deklaratsiyaning mazmunidan kelib chiqib, barcha inson to'laonli bilim olish, rivojlanish, o'zini jamiyatning bir bo'lagi ekanligini his qilishi, mumkin qadar yaxshi hayot kechirishi, o'zlaridagi mavjud qobiliyatlarni namoyish qilishga haqli ekanliklarini ham aytish o'tish mumkin.

Bolalar huquqlarini yanada mustahkamroq muhofaza qilish maqsadida BMT tomonidan 1989-yilda "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi konvensiya qabul qildi. Bu konvensiyada qariyb 191 mamlakat ko'ngilli tarzda ishtirok etdi va qonun ijrosini bajarishni o'z zimmasiga oldi.

Inklyuziv ta'limda "integratsiya" tushinchasi ham mavjud va bu ikki atama bir-biriga chambarchas bog'liq. "Integratsiya (inglizcha-itegrative-qo'shilish, birlashtirish) degan



ma'nolarni bildiradi. Buyuk Britaniyaning "Bolalarni qutqaring" jamg'armasi tomonidan nashr etilgan "Maktablar hamma uchun" nomli o'quv qo'llanmada ham ko'p hollarda bu ikki atama bir xil ma'noda ishlatilib kelingan. Sog'lom va inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarning bir sinfda birga o'qitilishi integratsiyaga qo'yilgan birinchi qadamdir.

Hozirgi kunda inklyuziv ta'limni tashkil etish usullari barcha mamlakatlarda yaxshi rivojlangan va turlicha shakilda olib borilmoqda.

Irlandiya ta'lim tizimida barcha inklyuziv ta'limga muhtoj integratsiyalashgan o'quvchilarga alohida o'qtuvchilar, fan o'qtuvchilari, psixolog va maktabdan tashqari ta'limda tibbiy yordam shakillangan. Boshlang'ich sinf va ulardan biroz katta sinf o'quvchilar bilim olish darajasi doim nazorat ostida bo'ladi va ularga g'amxo'rlik qilinadi. 2000-yildan boshlab mamlakatning barcha maktablari tibbiy xizmat bilan ta'minlangan. Ta'lim olish jarayonida qiyinchilikka uchraydigan o'quvchilar bilan ishlashda to'g'arak mashg'ulotlari ham tashkil etilgan.

Rossiyada ham bu ta'limni tashkil etish anchayin taraqqiy etib bormoqda. Maxsus ta'limni tashkil etish ikki xil usulda yo'lga qo'yilgan. Bular differinsial va integratsiya. Differinsial yo'nalishning o'zi o'z ichida 8 ta yo'nalishni qamrab oladi. Integratsiya yo'nalishiga quyidagi modellar kiradi:

1. Aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun guruh va sinflar.
2. Ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun guruh va sinflar.
3. Xulqi o'gir bolalar uchun maxsus sinflar.

AQSH da ham 30 yildirki, nogironligi bois maxsus etiborga muhtoj millionlab amerikalik o'quvchilar "Nogoron shaxslar uchun ta'lim qonuni" doirasida to'liq ta'lim imkoniyatiga ega bo'lib kelmoqda. "Barcha nogiron bolalar uchun ta'lim" deya nomlangan



qonun mamlakatdagi nogironligi bo'lganlar uchun bir olam imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Quyidagi qonun qabul qilinishidan oldin nogiron shaxslarni o'qitish uchun maktablarda deyarli yetarlicha sharoit yo'q edi. Soqov, ko'zi ojiz, yurishida nuqsoni bor yoki ruhan zaif bolalarni o'qitishning umuman iloji bo'lmagan. Chunki ular uchun maxsus umumta'lim maktab muassasalari, sinflar yaratib berishni talab qiladigan federal shtatlar mavjud emas edi. Yuqoridagi qonun qabul qilingandan so'ng vaziyat tubdan o'zgardi. Qonun nogiron bolalarga hamma qatori o'qish, bilim olish imkoniyatini berdi.

Bugungi kunda oliy o'quv yurtini bitirgan ijtimoiy himoyaga muhtoj mutaxassislar o'zlari kabi o'quvchi yoshlarga bilim bera olishadi. Shu o'rinda bu qonun bandlikni ta'minlash, ishsiz insonlar sonini kamayishiga ham xizmat qiladi deb bimalol ayta olamiz.

Joriy etilgan qonun ijrosining bajarilishini muntazam ravishta kuzatib boradigan mutaxassislar uning muafdaqiyatli samara berganligini aytib o'tishgan. Chunki qonun qabul qilingandan beri nogironlar o'rtasida maktabni to'liq bitirayotganlar soni oldingiga nisbatan anchayin oshgan. Ma'lumot sifatida AQSH da inklyuziv ta'lim bilan birgalikda nogironligi bor shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ham ravnaq topgan. So'zimizning isboti sifatida Amerikadagi "PACKHAM" tashkiloti. "PACKHAM" nogironlar uchun treninglar uyishtiradigan va ularni ishga joylaydigan notijorat tashkiloti. Bunda daun sindromi, ruhiy xasta, ko'rish imkoniyati cheklangan, mutlaqo imkoniyati cheklangan shaxslar uchun o'zlarini yaxshi his qila oladigan muhit va ish turlarini topib beradi. Bu muassasa nogironlar hayotiga moslashtirilgan uskuna va jihozlar bilan ta'minlangan. Bundan tashqari ularning restoranolarda ishlashi, o'zlari kashf etgan taomlarning aynan mana shu yerda pishirilishi, mijozlarga xizmat qilishi hamda yo'laklarning ham shunga ko'ra moslashtirilganligi quvonarli hol albatta. "PACKHAM" tashkilotida ish faoliyatini davom ettirayotgan ishchilardan Mari Rouz Xayber o'zining azaliy orzularini ro'yobga



chiqargan,jamiyatga qo'shilishida astoydil ko'mak bergan,hayotga bo'lgan qiziqishini va munosabatini tubdan o'zgartirgan,bir qancha do'stlar ortirishiga sababchi bo'lganligi uchun ushbu tashkilotga o'z minnatdorchiligini bildirishini aytib o'tadi.

Hech o'ylab ko'rganmisiz,biz yurgan yo'laklardan biz qatori ayrim bolalar yurolmaydi,biz har kuni ko'rib ko'nikib ketgan atrof muhitni, tabiatni ular ko'ra olmaydi,ichidagi gaplarini,so'zlarini bizdek ravon bayon qilib bera olmaydi.Ammo ular ham bizdek bo'lishni,tabiatni ko'rishni,atrofdagilar bilan suhbatlashishni xohlaydilar.

O'zbekistonda ham barcha rivojlangan mamlakatlar qatori ta'lim tarbiyani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Ta'limda joriy etilgan yangiliklardan biri umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni tashkil etilganligini misol qilib keltirsak bo'ladi. Bu ta'lim tizimi boshqa ilg'or mamalakatlardagi kabi bizda ham nogironligi bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning sog'lom bolalar bilan bir sinfda qo'shib o'qitilishi shaklida olib boriladi. Ta'limni bunday tashkil qilishdan maqsad, o'quvchida jamoa bilan ishlash, o'z fikrini bayon qilish, ijtimoiy munosabatga kirishish, o'zida bor imkoniyatlarni bayon qilish qobiliyatlarini shakllantirish va tarkib toptirish.Bunday munosabatlarning bardavom bo'lishida o'qtuvchining roli katta ahamiyatga ega. Negaki, sinfdagi inklyuziv bolani doimiy ravishta nazorat qilishi, boshqalardan ajratmagan holda ta'limga jalb etishi, u bilan alohida ishlashi lozim bo'ladi. Ta'limdan tashqari sport, madaniyat, san'at bilan ularni tanishtirishi, mana shu sohaga moyilligi bor o'quvchilarni aniqlash, ularga amaliy ko'mak berish kerak bo'ladi.

Har bir narsaning rivojlanish pog'anasi bo'lgani kabi yurtimizda ham bu ta'limni tashkil etishda bir qancha kamchiliklar mavjud.Bular o'quvchilarga dars berishda qo'llaniladigan zarur adabiyotlar,metodik qo'llanmalar, kerakli uskuna va jihozlarning yetarli emasligi.Jamiyat o'rtasida inklyuziv ta'lim tizimining mohiyati haqida batafsil tushintirish tashfiqot ishlarining olib borilmaganligi.Bunday hollarda mamalakatimizning



chekka hududlarida istiqomat qiladigan insonlar to'liq ma'lumotga ega bo'lmaydilar va farzandlarining sifatli ta'limdan chetda qolishiga sababchi bo'ladilar. Yana pedagogika yo'nalishidagi OTM lar o'quv dasturiga inklyuziv ta'lim berish metodikasining to'liq kirib bormaganligi. Bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotganligi yosh kadrlarning mana shu sohaga chuqurroq kirib borishiga to'sqinlik qiladi. O'zbekistonda inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarning qamrab olinish ko'rsatgichining pastligi, mamalakatimiz hududida yetarlicha inklyuziv muassasalarining yo'qligi, darslar tayanch korreksion sinfxonalarda tashkil etilmasligi, kitob do'konlarida ushbu ta'limga oid adabiyotlarning nashrdan chiqmaganligi, inklyuziv ta'limni rivojlantirishda normativ-huquqiy bazasining takomillashmaganligi. Jamoat joylarida transport vositalari, ko'ngil ochar hiyobonlarda yo'laklarning ular uchun to'laqonli moslashtirilmaganligi. Bandlikni ta'minlash, aholi o'rtasida boqimandalikni bartaraf etish uchun mehnat turini tanlashda bir qancha cheklovlarning bor ekanligi bugungi kundagi dolzarb muamolardan biri bo'lib qolmoqda.

Inson o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, doimiy ravishta intilishda va izlanishda bo'ladi.

Uning qiziqishlarini rivojlantiradigan, imkoniyatlarini namoyish qilishda ko'maklashadigan atrof-muhitning mavjudligi esa ko'zlagan maqsadlari sari ildam qadam tashlashiga sababchi bo'ladi.

Mamalakatimizning rivojlangan davlatlar qatorida bo'lishi aslida biz yoshlarning qo'limizda. Qo'lni-qo'lga berib, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ham har sohada o'z jamoamizda birlashtirsak, bir oila bo'lsak, buyuklar ortidan ergashsak, va Amir Temur bobomizning "Kuch-birlikda" shiorlariga amal qilsak buyuk safarni ko'zlab yo'lga chiqqan O'zbekiston karvonimiz manziliga albatta, yetishadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "O'zbekiston maktablarida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi (2020-2025)
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuziv-ta-limni-boshqarishning-tarixi-va-huquqiy-asoslari-jahon-tajribasi-misolida>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuziv-ta-limni-masafadan-o-qitish-modellari-bilan-qo-llab-quvvatlash>